



KREDIT - MODUL TIZIMIDA INDIVIDUAL TA'LIM TRAYEKTORIYASINI BOSHQARISH

Katayeva Saodat Abduraxim qizi

Surxondaryo viloyati Termiz shahar

Termiz davlat universiteti magistranti.

Email: saodatkatayeva0@gmail.com

Tel:+998994185748

Annotatsiya: ushbu maqolada biz siz bilan zamonaviy ta'lismi kredit - modul tizimi uning avzalliklari va talabalarga ushbu dasturning vazifasi, maqsadlari nimalardan iboratligi va kredit - modul tizmida individual ta'lismi trayektoriyasini boshqarish haqida so'z yuritamiz

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, islohotlar zamonaviy ta'lismi, oliy ta'lismi, modul tizimi, kredit modul tizimi, individual ta'lismi trayektoriyasi, farmon, kansepsiya, kadrlar, texnologiyalar, zamonaviy didaktika.

Modul tizimi nima? Kredit modul tizimi nima? individual ta'lismi trayektoriyasi? bu tizimning avzalliklari haqida fikr yuritsak.

Modul tizimi – bu alohida individual o'quv fani. o'zida egallangan bilim va kasbiy mahoratni jihatlarni qamrab olgan. Bunda talaba o'quv dasturlarni o'zlashtirish natijasida va yakuniy nazoratni kuzatib borish orqali ta'lismi oluvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni muntazam ravishda baholab borish o'quv dasturuni o'zlashtirish jarayonini tashkil etish tizimi hisoblanadi Mazkur o'qitish tizimi ma'ruza, nazariy, amaliy, semenar labaratoriya mashg'ulotlari o'quv amaliyoti klinik o'quv amaliyotlar kurs loyhasi(ishi), shuningdek ta'lismi oluvchilarning mustaqil mashg'ulotlari bo'yicha haftalik soat, yuklamasi va ta'lismi oluvchining faoliyat me'zonlari aks ettiriladi. Ta'lismi oluvchilar tomonidan barcha majburiy faoliyat turlari bajarilgandan so'ng bu kreditlarni to'plash mumkin.

Kredit birliklari tizimiga to'xtaladigan bo'lsak bu kredit dasturlarni uning tarkibiy qismlari ya'ni modullar bloklari kurslar va boshqalarga biriktiriladi, shu orqali ta'lismi dasturlarini tavsiflashning tizimli usuli yaratiladi. Kredit - modul tizmining bir qancha avzallik jihatlari mavjud bular hozirgi kun va zamon ta'lablariga to'la mos keladigan qilib yaratilgan. Ushbu dasturning aniq va davomli maqsadi shundaki, shaffof ta'lismi tizimini bugungi kunda mamlakatimizda ham tashkil etish va korrupsiya holatlarini tubdan yo'q qilishdir. Aynan shu dastur jahon ta'lismi standartlari asosida yaratilganligi qolaversa, talabalarning bilim saviyasini shaffof tarzda yaqqol baholash imkoniyatini ham beradi.

Kredit – modul tizimiga o'tish – bu bugungi kun talabi hisoblanadi. Bu tizimda o'qituvchilarni talabalar tanlaydi. Tanlov fanlar soni ko'paytiriladi, ya'ni ta'laba o'z

yo'nalishi bo'yicha tanlab o'rganishi mumkin bo'lgan fanlar soni ko'p miqdorda bo'ladi. Kredit modul tizimida talaba ma'lum ball asosida o'ziga kreditlar to'playdi va bu ball uning bilim, ko'nikmalarini qay darajada o'zlashtira ololganlini belgilab beradi. Bu dasturda har bir fan bo'yicha aniq bir me'yorlarga tayangan holda to'planishi kerak bo'lgan ball miqdori va kredit hajmi belgilab berilgan. Har bir talaba shu kredit asosida ta'lim jarayonida 1 smestr davomida ushbu ballarni qay tartibda olishi va jamlab borishi belgilab qo'yilgan va aniq talablar yig'ib boriladi. Shu bilan yana bir qatorda talabalarga qulayligi shundan iboratki, ushbu dasturda talaba haqidagi barcha ma'lumotlar va darslik mavzu yuzasidan to'plab borilgan ballar jamlanmalarida o'z aksini topgan.

Kredit-modul tizimi- O'zbekiston oliy ta'limning o'lchash va baholash birligi hisoblanadi. Unga ko'ra, universitetda o'tiladigan har bir fan undagi o'qish yuklamasi miqdoriga qarab, kreditlar ajratilgan. Masalan, har bir fan o'rtacha 5, 6 yoki 7,5 kreditlarda aks etishi mumkin. Talaba esa har semestr, o'quv yilida muayyan miqdorda kredit to'plab borishi mumkin va bu miqdorga qarab, unga bakalavr yoki magistrlik darajasi beriladi.

Individual ta'lim trayektoriyasi – bu me'yoriya hujjatda oliy ta'limning asosoiy o'quv rejasining aksi hisoblanadi. Unga ko'ra talaba komponenti uchun individual ta'lim soatlari ajratilishi nazarda tutilgan.

Ta'limning individual trayektoriyasi - tegishli faoliyatni amalga oshirish orqali o'quvchining ta'lim trayektoriyasidagi shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish natijasidir. Zamonaviy ta'limning asosoiy vazifasi har bir talabani individual trayektoriyasini qurishdir. Individual ta'lim trayektoriyasi bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish maxsus metodologiya va texnologiyani talab qiladi.

Zamonaviy didaktikada bu muammolarni hal qilish uchun odatda ikkita qarama – qarshi usul taklif etiladi ularning har biri individual yondashuv deb ataladi.

Birinchi usul – o'qitishning diferentatsiyasi bo'lib uning unga ko'ra har bir o'quvchiga individual yondashish u o'rganayotgan materialni murakkablik darajasi yo'nalishi bo'yicha farqlash taklif etiladi.

Ikkinci usul – har bir talaba o'z ta'lim yo'li u o'rganadigan har bir ta'lim sohasiga nisbatan qurilganligi nazarda tutiladi. Har bir talaba barcha o'quv fanlarni o'zlashtirishi va o'z ta'lim trayektoriyasini yaratib olishi kerak.

Talabalarning ertangi kunini aniq va puxta qadamlar bilan boshlashi va o'ziga aniq bir maqsadni tanlashi, maqsadga boruvchi yo'l zahmatini belgilab olishi kerak. Har bir talabaning aniq individual trayektoriyasi va shu trayektoriyasidagi rejalar fikr mulohaza yuritib borishni bilishi lozim.